



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI

Nomozova Qumri Isoevna

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi professori v.b. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiy globallashuvga ta'siri tizimli va kompleks tarzda yoritilgan. Unda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sug'urta xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini kengaytirish, InsurTech asosida innovatsion rivojlanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qilayotgani asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda raqamlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy islohotlar, yetakchi sug'urta kompaniyalari tajribasi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamlashtirish milliy sug'urta tizimini jahon sug'urta makoniga integratsiyalashuvini tezlashtiruvchi hal qiluvchi omil bo'lib, uni bosqichma-bosqich va institutsional yondashuv asosida amalga oshirish barqaror rivojlanishning muhim sharti ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish; sug'urta bozori; iqtisodiy globallashuv; O'zbekiston sug'urta tizimi; xalqaro integratsiya; InsurTech; raqamli sug'urta xizmatlari; elektron sug'urta polislar; transchegaraviy sug'urta; qayta sug'urta (reinsurance); Big Data; sun'iy intellekt; risk-menejment; anderrayting; raqamli infratuzilma; normativ-huquqiy islohotlar; IAIS standartlari; Solvency II; Risk-Based Supervision; raqamli platformalar; investitsiyaviy jozibadorlik; raqobatbardoshlik; sug'urta ekotizimi; kibernetika; moliyaviy shaffoflik; xalqaro kapital; innovatsion rivojlanish.

Abstract: This paper provides a comprehensive and systematic analysis of the impact of digitalization on the economic globalization of the insurance market of Uzbekistan. It substantiates that the implementation of digital technologies facilitates the alignment of insurance services with international standards, the expansion of cross-border insurance and reinsurance operations, innovation-driven development based on InsurTech solutions, the attraction of foreign investment, and the strengthening of the competitive environment. The study also examines regulatory reforms aimed at accelerating digitalization, the experience of leading insurance companies, and state support mechanisms. The findings indicate that digitalization is a key driver accelerating the integration of Uzbekistan's national insurance system into the global insurance space, while its phased and institutional implementation constitutes an essential condition for the sustainable development of the sector.

Keywords: Digitalization; insurance market; economic globalization; insurance system of Uzbekistan; international integration; InsurTech; digital insurance services; electronic insurance policies; cross-border insurance; reinsurance; Big Data; artificial intelligence; risk management; underwriting; digital infrastructure; regulatory reforms; IAIS standards; Solvency II; Risk-Based Supervision; digital platforms; investment attractiveness; competitiveness; insurance ecosystem; cybersecurity; financial transparency; international capital; innovative development.

Абстрактный: В данном тексте комплексно и системно рассматривается влияние процессов цифровизации на экономическую глобализацию страхового рынка Узбекистана. Обосновано, что внедрение цифровых технологий способствует приведению страховых услуг в соответствие с международными стандартами, расширению трансграничных страховых и перестраховочных операций, инновационному развитию на основе InsurTech, привлечению иностранных инвестиций и усилению конкурентной среды. Проанализированы нормативно-правовые реформы, направленные на ускорение цифровизации, опыт ведущих страховых компаний, а также механизмы государственной поддержки. По результатам исследования сделан вывод о том, что цифровизация является ключевым фактором, ускоряющим интеграцию национальной страховой системы Узбекистана в мировое страховое пространство, а ее поэтапная и институциональная реализация выступает важным условием устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: Цифровизация; страховой рынок; экономическая глобализация; страховая система Узбекистана; международная интеграция; InsurTech; цифровые страховые услуги; электронные страховые полисы; трансграничное страхование; перестрахование (reinsurance); Big Data; искусственный интеллект; риск-менеджмент; андеррайтинг; цифровая инфраструктура; нормативно-правовые реформы; стандарты IAIS; Solvency II; надзор, основанный на рисках (Risk-Based Supervision); цифровые платформы; инвестиционная привлекательность; конкурентоспособность; страховая экосистема; кибербезопасность; финансовая прозрачность; международный капитал; инновационное развитие.

Kirish (Introduction/Введение).

Sug'urta bozoriga yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini kiritish va raqamlashtirish sug'urta bozorning innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. O'zbekiston sug'urta bozorning iqtisodiy globallashuvi jarayonlariga raqamlashtirish quyidagi asosiy ta'sir yo'nalishlari orqali ta'sir ko'rsatmoqda va bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshmoqda:

- sug'urta xizmatlarining xalqaro standartlarga moslashuvi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi;
- xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ning kirib kelishi;
- risklarni baholash va anderrayting global modellarning amaliyotda qo'llanilishi;

xalqaro qayta sug'urta talablariga mos axborot almashinuvining ta'minlanishi kabi holatlar O'zbekiston sug'urta bozorning jahon sug'urta tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirmoqda.

Transchegaraviy qayta sug'urta operatsiyalarining kengayishi raqamli platformalar orqali amalga oshishi yuz bermoqda, bunda xorijiy qayta sug'urtalovchilar bilan onlayn hamkorlik, xalqaro brokerlik platformalariga ulanish, transchegaraviy risklarni sug'urtalash imkoniyatlari kengaymoqda, bu esa bozorning ochiqligi va raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi.

Sug'urta bozorida InsurTech yechimlari orqali innovatsion rivojlanishga ham e'tibor qaratilib, onlayn sug'urta (e-insurance), mobil ilovalar, Big Data, sun'iy intellekt (AI), blokcheyn asosidagi shartnoma va to'lov tizimlari joriy etilmoqda. Bu global sug'urta trendlariga mos innovatsion ekotizim shakllanishini rag'batlantiradi.

Xalqaro kapital va investisiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida axborotning ochiqligi va raqamli hisobotlarning yo'lga qo'yilishi xorijiy investorlar uchun bozor shaffofligini oshiradi, qo'shma sug'urta kompaniyalari va strategik hamkorlikka zamin yaratadi, xalqaro moliya institutlari bilan integratsiyani osonlashtiradi. Sug'urta bozorida raqobat muhitining globallasuvi xorijiy sug'urta kompaniyalari uchun bozorga kirish to'siqlarini kamaytiradi, mahalliy sug'urtachilarni xizmat sifati, narx va texnologiya bo'yicha raqobatga majbur qiladi, bozor samaradorligini oshiradi.

Ushbu jarayonlarning kechishi davlat siyosati va institusional qo'llab-quvvatlash orqali tezroq amalga oshishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekistonda sug'urta sohasini raqamlashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza, elektron polislar va onlayn to'lovlar, vakolatli organ (nazorat organi) texnologiyalari (RegTech, SupTech) bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи (Literature review, Анализ литературы).

Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlari raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Sug'urta bozori xalqaro moliyaviy xizmatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida milliy chegaralar doirasidan chiqib, global risklar taqsimoti va kapital harakati jarayonlariga faol jalb etilmoqda [1].

Ilmiy adabiyotlarda raqamlashtirish sug'urta faoliyatining barcha bosqichlariga — anderryating, tariflash, shartnomalarni tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va risklarni qayta sug'urtalash jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi tizimli omil sifatida talqin qilinadi [2]. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish milliy sug'urta bozorlarining xalqaro sug'urta tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiruvchi muhim institusional mexanizm hisoblanadi [3]. O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirish iqtisodiy globallasuvning amaliy instrumenti sifatida namoyon bo'lib, milliy sug'urta tizimini jahon sug'urta makoniga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda [4]. Bunda ko'pincha korxonada faoliyati samaradorligi jamiyat rivojlanishining zamonaviy tamoyili bo'lgan raqamlashtirish ta'siri hisobga olingan holda baholanadi [5]. Raqamlashtirishning rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bir nechta bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1-bosqich — alohida axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan muayyan vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. Bu har qanday faoliyatning ayrim jihatlarni takomillashtirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarida qo'llaniladigan vazifalar xilma-xilligi ITning turli tasniflarini vujudga keltiradi. Bu tasniflar hal qilinayotgan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlariga javob beradigan turli klassifikatsiya belgilarining qiymatlari asosida quriladi [6].

2-bosqich — IT platformalarini ishlab chiqish va joriy etish. Ular apparat-dasturiy majmualar bo'lib, foydalanuvchilarga muayyan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bazaviy servislar to'plamini ta'minlaydi [7].

Тадқиқот мақсади ва усуллари (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Ушбу тадқиқотнинг мақсади иқтисодий глобаллашув шароитида сугурта бозори субъектларининг иқтисодий интеграциясининг назарий асосларини таҳлил қилиш ва турли мамлакатларга мансуб иқтисодий субъектлар ўртасидаги ўзаро яқинлашувни янада кучайтириш ва тақомиллаштиришда рақамлаштиришнинг ўрнини кўрсатиб бериш ва шу йўналишда таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат. Ушбу мақсадларни амалга оширишда эмпирик таҳлил ва мантикий таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results, Анализ и результаты).

Sug'urta bozorlarida globallasuv va raqamlashtirish avvalo majburiy va ommaiy sug'urta turlaridan boshlanmoqda, keyin ixtisoslashgan va korporativ segmentlarga o'tmoqda va xalqaro tajriba milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda.

Mazkur masalalarda muammolar va cheklorlar mavjud bo'lib, buni IT-infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, raqamli faoliyatga tayyor kadrlar tanqisligi, kibernetika risklarining kuchayib borayotganligi, aholining raqamli savodxonligining pastligi kabi omillar globallasuv sur'atini ma'lum darajada cheklamoqda.

Raqamlashtirish O'zbekiston sug'urta bozorining iqtisodiy globallasuvda asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonning yanada tezlashuvi bozorning ochiqligi, xalqaro integratsiyasi, innovatsion rivojlanish va investitsiyaviy jozibadorligining oshishiga bog'liq. Mazkur shart-sharoitlar talab darajasida ta'minlanganda, milliy sug'urta tizimi jahon sug'urta makoniga bosqichma-bosqich tezroq kirib borishi ta'minlanadi.

Hozirgi bosqichda jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlari raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liq holda

rivojlanmoqda. Sug'urta bozori ushbu jarayonlarning ajralmas qismi sifatida milliy chegaralar doirasidan chiqib, xalqaro moliyaviy xizmatlar tizimiga integratsiyalashmoqda. Raqamlashtirish sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, risklarni baholash, qayta sug'urtalash va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda yangi institusional va texnologik imkoniyatlarni yaratmoqda.

Jahon moliya tizimining eng muhim tarmog'i sifatida sug'urta institutini raqamlashtirish sug'urtalovchilar faoliyatiga ham jiddiy tuzatishlar kiritdi, ular uchun raqobatbardosh faoliyatni davom ettirish va daromad olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish hayotiy ahamiyatga ega bo'ldi:

- sug'urtalovchilarning axborot resurslari va davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- sug'urta tashkilotlarining tashkiliy va biznes-jarayonlarini avtomatlashtirish;
- sug'urta xizmatlari iste'molchilari bilan kommunikatsiya kanallari va shakllarini kengaytirish;
- axborot-tahlil qilish va monitoring tizimlarini kuchaytirish;
- «raqamli» xaridorning ehtiyojlariga moslashgan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;
- sug'urta tashkilotlarining saytlari va mobil ilovalari orqali sug'urta mahsulotlarini sotish hajmini oshirish;
- ixtisoslashtirilgan ma'lumotlarni olishni yengillashtirish va internet-reklamning ko'p qirraligi orqali mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish.

O'zbekiston sug'urta bozorining eng yirik va yetakchi va shu bilan birga, raqamlashtirish sohasidagi yetakchi sug'urta kompaniyasi sifatida O'zbekinvest sug'urta kompaniyasi tomonidan raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar quyidagilarda o'z aksini topdi:

- kompaniya zamonaviy raqamli texnologiya — Face ID ni barcha axborot tizimlari va mobil ilovalarga joriy qildi;
- "O'zbekinvest" O'zbekiston sug'urta bozorida birinchi bo'lib 15 turdagi sug'urta polislarini to'liq elektron formatga o'tkazdi;
- 2024-yil yanvar oyidan boshlab, xalqaro IT-hamkori GlowByte ko'magida sun'iy intellekt asosidagi Tallys.SDE innovatsion tizimini ishga tushirdi;
- bugungi kunda bu tizim kompaniyaning umumiy mijozlar bazasidagi polislarining 87 foizi ma'lumotlarini qayta ishlash imkonini bermoqda;
- onlayn-savdo platformalari: insurance.uz internet-do'koni, mijozlar uchun mobil ilova va sug'urta agentlari uchun mobil ilova ishlab chiqilgan va joriy qilingan;
- ushbu platformalar orqali 2023 yil natijalariga ko'ra 849 080 dona onlayn-polis sotilgan, bu sotilgan polislar umumiy ulushining 77% ini tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 275 foizga oshgan [8].

Bu kabi tadbirlar yana bir nechta sug'urta kompaniyalarida amalga oshirilmoqda. Bunday harakatlarning amalga oshirilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlarda ko'zda tutilgan talablar muhim rol o'ynamoqda. Xususan, 2021 yil 23 oktyabrda qabul qilingan PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, 2022 yil 1 iyuldan boshlab sug'urtaning barcha turlarini elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berildi, barcha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi Sug'urta to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi bilan birgalikda yuritadigan yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro'yxatga olinishi belgilab qo'yildi va shu bilan birga, 2023 yil 1 yanvardan boshlab majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martda qabul qilingan PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2024 yil 1 sentyabrdan boshlab sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish va sug'urta polislarini ushbu tizim orqali rasmiylashtirish majburiy etib belgilandi va barcha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini faqat qog'oz shaklda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilindi. Sug'urta polislarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtirmaslik ularni haqiqiy emas deb topishga asos bo'lib, shu bilan birga ushbu sug'urtalovchi tomonidan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo'pol ravishda buzish hisoblanishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, ushbu qaror asosida: sug'urtalovchilarning faoliyatiga aralashmasdan ularni onlayn monitoring qilish; sug'urtalovchilarning hisobot berish jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish; vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash orqali sug'urta shartnomalarini tuzish jarayonini soddalashtirish masalalari belgilab qo'yildi.

Shu va boshqa holatlar O'zbekiston sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayonlarining tezlashuviga sharoit yaratib berdi.

O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirish iqtisodiy globallashtirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lib, milliy sug'urta tizimini jahon sug'urta makoniga yaqinlashtirishga xizmat qilishi zarur. Bu borada O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirishning iqtisodiy globallashtirish jarayonlariga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshmoqda.

Sug'urta xizmatlarining xalqaro standartlarga moslashuvi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida sug'urta kompaniyalari faoliyatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, risk-menejment va andarraytingning global modellari qo'llanilmoqda. Bu esa milliy sug'urta bozorining xalqaro qayta sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvini osonlashtirib, natijada yirik milliy sug'urta kompaniyalarimiz qayta sug'urta bo'yicha xalqaro bozorda ko'rsatayotgan xizmatlar hajmi sezilarli oshdi.

Transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarining kengayishi.

Raqamli platformalar orqali ma'lumot almashuvi, onlayn shartnomalar va avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar joriy etilishi xorijiy qayta sug'urtalovchilar bilan hamkorlikni faollashtirmoqda. Bu holat O'zbekiston sug'urta bozorining ochiqlik darajasini oshirib, uni global risk taqsimoti tizimiga jalb etmoqda.

InsurTech yechimlari asosida innovasion rivojlanish.

Onlayn sug'urta polislar, mobil ilovalar, Big Data va sun'iy intellekt asosida risklarni baholash tizimlari joriy etilishi sug'urta xizmatlarining tezkorligi va sifatini oshirmoqda. Ushbu jarayon jahon sug'urta bozorida innovasion trendlarga mos ravishda milliy sug'urta ekotizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro kapital va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi.

Raqamlashtirish natijasida sug'urta bozorida axborot shaffofligi oshib, xorijiy investorlar uchun bozor jozibadorligi kuchaymoqda. Bu qo'shma korxonalar tashkil etish, strategik hamkorlik va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Raqobat muhitining globallashtirish.

Raqamli kanallar orqali xorijiy sug'urta kompaniyalarining milliy bozorga kirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu mahalliy sug'urta tashkilotlarini xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va innovasion yechimlarni joriy etishga majbur qilmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich va adaptiv xarakterga ega. Dastlab majburiy va ommaviy sug'urta turlarida elektron polislar, onlayn to'lovlar va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari joriy etildi. Keyinchalik ushbu yechimlar korporativ va ixtisoslashgan sug'urta segmentlariga tatbiq etilmoqda.

Davlat tomonidan raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilib, nazorat texnologiyalari (RegTech va SupTech) joriy etilmoqda. Shu bilan birga, IT-infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli xizmatlar bo'yicha malakali kadrlar tanqisligi va kibernetika masalalari globallashtirish sur'atini ma'lum darajada cheklab turibdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamlashtirish O'zbekiston sug'urta bozorining iqtisodiy globallashtirish jarayonlarida hal qiluvchi omil hisoblanadi. U milliy sug'urta tizimining xalqaro integratsiyasini tezlashtirib, bozorning raqobatbardoshligi, innovasion salohiyati va investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Bunda raqamlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish va milliy xususiyatlarni hisobga olish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Sug'urta bozori xalqaro moliyaviy xizmatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida milliy chegaralar doirasidan chiqib, global risklar taqsimoti va kapital harakati jarayonlariga faol jalb etilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda raqamlashtirish sug'urta faoliyatining barcha bosqichlariga — andarrayting, tarflash, shartnomalarni tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va risklarni qayta sug'urtalash jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi tizimli omil sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish milliy sug'urta bozorlarining xalqaro sug'urta tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiruvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida raqamlashtirish iqtisodiy globallashtirishning amaliy instrumenti sifatida namoyon bo'lib, milliy sug'urta tizimini jahon sug'urta makoniga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda [9].

Shu bilan birga, ta'kidlash kerak, milliy sug'urta qonunchiligidagi xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalarining milliy bozordagi to'g'ridan-to'g'ri ishtirokining cheklanganligi milliy sug'urta tizimining

jahon sug'urta makoniga yaqinlashuviga ma'lum darajada to'g'ri qilinadi.

O'zbekiston sug'urta bozorining raqamlashtirish orqali iqtisodiy globallashtirish jarayonlariga tezroq integratsiyalashuvini ta'minlash, bizningcha tizimli, bosqichma-bosqich va institutsional yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar bizningcha mantiqan quyidagi ketma-ketlikda amalga oshishi lozim.

1. Institutsional va normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish. Shu maqsadda:

IAIS standartlari va ICP'larni to'liq joriy etish;

Insurance Core Principles (ICP) talablarini bosqichma-bosqich implementatsiya qilish;

Riskka asoslangan nazorat (Risk-Based Supervision) ni raqamli vositalar asosida joriy etish;

Solvency II elementlarini milliy sug'urta tizimiga moslashtirish zarur. Buning natijasida xalqaro investorlar va reassurerlar (qayta sug'urta (reinsurance) xizmatlarini ko'rsatuvchi professional kompaniyalar) ishonchi oshadi;

InsurTech uchun huquqiy tartibga soluvchi muhit yaratish, buning uchun Regulatory sandbox mexanizmlarini joriy etish;

onlayn polislar, smart-kontraktlar, P2P insurance'ni qonuniylashtirish;

elektron identifikatsiya (e-KYC) va elektron imzo normalari sug'urtaga to'liq tatbiq etish. Buning natijasida xalqaro InsurTech kompaniyalari uchun bozor ochiladi.

2. Raqamli infratuzilmani shakllantirish va integratsiyalash. Shu maqsadda:

yagona sug'urta raqamli platformasini yaratish;

polislar, da'volar (claims), reestrlar uchun Unified Insurance Platform dan foydalanish;

blockchain asosida polislar va qayta sug'urta hisob-kitoblarini amalga oshirish;

API orqali banklarni fintex va e-government bilan integratsiya qilish natijasida transchegaraviy operatsiyalar osonlashadi;

Big Data va AI asosida riskni baholash;

telematika, IoT va sputnik ma'lumotlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;

AI scoring modellari orqali sug'urta tariflarini individuallashtirish;

Fraud detection algoritmlarini joriy etish natijasida xalqaro raqobatga mos mahsulotlar paydo bo'ladi.

3. Xalqaro moliyaviy bozorlarga raqamli integratsiyalashuv. Shu maqsadda:

qayta sug'urta (reinsurance) jarayonlarini raqamlashtirish;

Lloyd's, Swiss Re, Munich Re kabi xalqaro reassurerlar bilan API-integratsiyalashuv;

On-chain reinsurance modellarini qo'llash;

Catastrophe modeling (Cat Models) ni joriy etish orqali O'zbekiston sug'urta bozorining global risk taqsimotida ishtirok etishi ta'minlanadi;

kross-bort (cross-border) sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

eksport-import, logistika va transport sug'urtasini rivojlantirish;

turizm va migratsiya sug'urtalarini rivojlantirish;

xorijda faoliyat yurituvchi o'zbek kompaniyalari uchun global polislar taqdim etish orqali sug'urta xizmatlarining eksport hajmi ortadi.

4. Sug'urta ekotizimini shakllantirish. Buning uchun:

bank-sug'urta-fintex integratsiyasini (Bancassurance 2.0) amalga oshirish;

mobil bank ilovalari orqali sug'urta mahsulotlarini sotishni kengaytirish;

BNPL + Insurance, Embedded Insurance modellaridan foydalanish;

marketpleyslar orqali mikrosug'urta xizmatlari sotuvini yo'lga qo'yish. Mazkur tadbirlarni amalga oshirish natijasida xalqaro platforma modellariga mos ekotizim shakllanadi;

InsurTech startaplarni qo'llab-quvvatlash;

IT Park negizida InsurTech Hubni shakllantirish;

venchur kapital va grantlardan foydalanish;

xalqaro akseleratorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi tadbirlar orqali innovasion mahsulotlarni global bozorga chiqarish.

5. Kadrlar va korporativ transformatsiya. Buning uchun:

raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;

Data science, actuarial analytics, cyber risk bo'yicha tayyorgarlikni yo'lga qo'yish;

xalqaro sertifikatlar (CII, SOA, IFoA) olishni tashkillashtirish;

xorijiy mutaxassislarni jalb etish orqali ilg'or tajribalarni o'zlashtirish;

sug'urta kompaniyalarida Agile va ESG yondashuvlarini amalga oshirish;

Digital-first strategiyani ishlab chiqish va ESG risk va climate risk hisobini joriy etish;
xalqaro hisobot standartlari (IFRS 17) ni to'liq avtomatlashtirish.

6. Xalqaro imidj va institusional hamkorlik. Shu maqsadda:

IAIS, World Bank, ADB, IFC kabi xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashuv hamda xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ochiq ma'lumotlar va shaffoflikni ta'minlash maqsadiida Insurance Open Data platformasidan foydalanishni yo'lga qo'yish;

xalqaro investorlar uchun ESG va risk dashboard'larni taqdim etish.

Raqamlashtirish O'zbekiston sug'urta bozorini lokal bozordan global moliyaviy ekotizimga transformasiya qiluvchi asosiy drayver hisoblanadi.

Bu jarayon normativ muvofiqlik, raqamli infratuzilma, xalqaro integratsiya va inson kapitali uyg'unligi orqali amalga oshirilishi lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1-martdagi 108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan yo'l xaritasida sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning sug'urta zahiralari shakllantirish va to'lov qobiliyatini aniqlash metodikasini Solvency II me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va shu bilan birga, Sug'urta nazoratchilari xalqaro uyushmasi (IAIS) bilan hamkorlikni kengaytirish vazifalari belgilab berilgan. Sug'urta sohasini tartibga soluvchi vakolatli organ sifatida Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ushbu vazifalardan kelbi chiqqan holda ishlar olib bormoqda.

Biz tomonimizdan IAIS standartlarini amaliyotga joriy qilish va Solvency II me'yorlariga o'tishning qanchalik darajada mamlakatimiz sug'urta bozorining bugungi kundagi holati uchun mos kelishini tahlil qilish maqsadida taqqoslama jadval tayyorladik (1-jadval).

1-jadval

IAIS va Solvency II tizimlarining taqqoslovchi jadvali*

№	Taqqoslash me'zoni	IAIS (Insurance Core Principles)	Solvency II
1.	Huquqiy maqomi	Xalqaro tavsiyaviy standartlar to'plami	Majburiy regulyator tizimi
2.	Qamrov hududi	Global daraja (200+mamlakat nazoratchilari)	Evropa ittifoqi mamlakatlari
3.	Asosiy maqsad	Sug'urta bozorining barqarorligi va iste'molchilarni himoya qilish	Sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash
4.	Asosiy maqsad	Sug'urta bozorining barqarorligi va iste'molchilarni himooya qilish	Sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash
5.	Qo'llash darajasi	Milliy qonunchilikka moslashtiriladi	Bevosita qonun sifatida qo'llaniladi
6.	Asosiy tuzilma	24 ta Insurance Core Principles (ICP)	3 ta ustun (Pillar I, II, III)
7.	Riskka yondashuv	Risk-Based Supervision (RBS)	Risk-Based Capital (RBC)
8.	Kapital talablari	Umumiy tamoyillar darajasida	SCR va MCR orqali aniq hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Swiss Re. *World Insurance Report*. Zurich, 2022. OECD. *Insurance and Private Pensions: Global Trends*. Paris, 2021.
2. World Economic Forum. *The Future of Financial Services: Insurance*. Geneva, 2020.
3. Cummins J.D., Venard B. *International Insurance Markets*. Springer, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari: "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

9.	Kapital hisoblash	Tammoyilga asoslanuvchi (flexible)	Formulaviy va modelga asoslangan
10.	Ichki modellar	Tavsiya etiladi	Qat'iy tartibda ruxsat bilan joriy etiladi
11.	Korporativ boshqaruv	ICP 7–8 orqali belgilangan	Pillar II doirasida majburiy
12.	Risk-menejment	Umumiy talablar	ORSA orqali to'liq integratsiya
13.	Hisobot va oshkoralik	Minimal xalqaro talablar	Yuqori darajadagi shaffoflik (SFCR, RSR)
14.	Moliyaviy hisobot	Milliy standartlar bilan uyg'un	IFRS bilan chambarchas bog'liq
15.	ESG va iqlim risklari	So'ngi ICP larda tavsiya etilgan	Amalda joriy etilmoqda
16.	Raqamlashtirish	RegTech va SupTech tavsiyalari	Avtomatlashgan hisobot va nazorat
17.	Innovatsiyalarga munosabat	InsurTech' ni qo'llab-quvvatlaydi	Cheklangan, ammo ruxsat etilgan
18.	Qayta sug'urta	ICP 13-14 orqali tartibga solinadi	Kapital hisobida inobatga olinadi
19.	Iste'molchilar himoyasi	Asosiy ustuvor yo'nalish	Ikkilamchi, ammo hisobga olinadi
20.	Rivojlanayotgan bozorlar uchun mosligi	Mos keladi	cheklangan

*IAIS. *Insurance Core Principles, Directive 2009/138/EC (Solvency II) manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

IAIS standartlari konseptual va universal xarakterga ega bo'lib, milliy sug'urta bozorlarini isloh qilish uchun asos yaratadi. Solvency II esa yuqori darajada rivojlangan moliyaviy bozorlar uchun mo'ljallangan qat'iy regulyator model hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston sug'urta bozori uchun IAIS → gibridd IAIS + Solvency II elementlarini to'liq riskka asoslangan model sifatida bosqichma-bosqich joriy etilishi eng maqbul yo'l hisoblanadi deb hisoblaymiz.

Xulosa (Conclusion, Заключение).

Global moliya bozorlarida yuz berayotgan chuqur transformatsion jarayonlar O'zbekiston sug'urta bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarning platformalashuvi va tarmoqlararo integratsiya jarayonlari sug'urta faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Sug'urta bozorini transformatsiyalash, bir tomondan, sug'urta tashkilotlarining ichki biznes-jarayonlarini raqamlashtirish, ikkinchi tomondan esa, ularning boshqa moliyaviy va nomoliyaviy sektor subyektlari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon ham raqamlashtirish yaxshi o'zlashtirilgan holatda samarali amalga oshadi. Aynan shu jarayonda sug'urta ekotizimlari samarali institusional yechim sifatida maydonga chiqadi.

Raqamlashtirish sug'urta tashkilotlariga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, risklarni aniqroq baholash, individual sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish hamda mijozlarga kompleks xizmatlar paketini taklif etish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar sug'urta xizmatlarini bank, investitsiya, sog'liqni saqlash, transport, savdo va boshqa sohalar bilan integratsiyalashgan holda taklif etishga sharoit yaratadi. Bu esa sug'urta bozorining funksional samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

5. Краузе Р.П. Исследование методических подходов к оценке эффективности ИТ-проектов на предприятиях // Бизнес-образование в экономике знаний. № 3 (17). 2020г. С. 87-92.
6. Chernova G., Khalin V., Yurkov A. Digitalization and its impact on the development of Russia // Journal of Applied Informatics. 2019. Vol. 14. No 5(83). P. 41-52.
7. Инновацион технологиялар платформалари [Электрон манба] URL: https://studopedia.su/10_88340_platforni-informatsionih-tehnologiy.html.
8. O'zbekinvest AJ sug'urta kompaniyasining Uzbekinvest.uz sayti ma'lumotlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari: "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
10. Qo'ldoshev, Q. (2023). SUG'URTA FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA BU BORADAGI CHET EL TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/26>